




# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

8/2023



8/2023

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2023, № 8, sentabr**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
**Elektron manzil:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich,** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.,** filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.,** kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.,** texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.,** fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich,** texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich,** psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich,** biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich,** siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich,** pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich,** kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich,** filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich,** tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich,** tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich,** tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna,** filologiya fanlari doktori, professor

**Amonova Zilola Qodirovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich,** tarix fanlari doktori  
**Jo'rayev Narzulla Qosimovich,** siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich,** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna,** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Zaripov Gulmurot Toxirovich,** texnika fanlari nomzodi, dotsent

<b>Норов Ж.Н.</b>	Метафора — лингвокультурологиянинг энг мухим бирлиги	129
<b>Ҳасанова М.Т.</b>	Билингвизмнинг мазмун-моҳияти ва психологик табиати	136
<b>Rakhimov M.M.</b>	Semantic functional features of the concept of “road”	140
<b>Ҳоҗиёева М.Ү.</b>	Badiiy nutqda shaxs tavsifli so‘z birikmalar	145
<b>Саидова З.Х.</b>	Проблемы, связанные с современной русской грамматикой и грамматикализацией	149
<b>Rahimov M.</b>	Korpus lingvistikasi taraqqiyoti va o‘zbek tilshunosligida korpus tahlil asoslari	154
<b>Sadikova G.I.</b>	Developing reading comprehension of expository texts in English by using effective reading strategies	160
<b>Базарова Н.Ш.</b>	Сравнительный анализ фонологических систем русского и узбекского языков в контексте методического подхода	164
<b>Shayzakov G‘. M.</b>	O‘zbek tilida zamon ma’nosining lisoniy-pragmatik ifodalanishi	172
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM ***</b> <b>ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Teshayeva G.J.</b>	Adabiy parallel janri taraqqiyotining ayrim masalalari	176
<b>Рахимова Н.Қ.</b>	Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод”ида “Дил ба ёр”лик моҳияти	181
<b>Очилова Н.У.</b>	Ўзбек халқ оғзаки ижодида “от” образи	186
<b>Рахимова М.Э.</b>	Составление плана-указателя и анализ стихотворного текста как виды самостоятельной работы школьников	191
<b>Yo‘ldosheva M.B.</b>	Badiiy tarjimaning o‘ziga xos muammolari va ularni bartaraf etish usullari	196
<b>Юлдашева Л.У.</b>	Мост между культурами: переводческое и литературное наследие Абдуллы Каххара в узбекской литературе	201
<b>Shomurodova S.G‘.</b>	Xalq dostonlarida kiyim-kechaklar bilan bog‘liq motivlarning tasviri	207
<b>Астанова Г.А.</b>	“Минг бир кеча”да бадий маҳорат	211
<b>Kasimova R.R.</b>	Alisher Navoiy g‘azallari inglizcha tarjimasida shoir va mutarjim psixologiyasi	216
<b>Abdullayeva F.A.</b>	“Ayriliq ostonasi” romanida tarixiy voqelikning badiiy ifodasi	224
<b>Eshonqulova G.T</b>	Preserving the implicitness of the original in translation	229
<b>Ashurov J.A.</b>	Erle Stanley Gardner’s descriptive language in his novel “The case of the velvet claws”	233
<b>Farmonova M.F.</b>	Struktural tahlilda matn sarlavhasi asosiy obyekt sifatida	237
<b>Abduraximova S.A.</b>	Development of fantasy as a genre in English and Uzbek literature	241

UO'K [821.512.133:821.111]:81'255.2:[159.9:801.1]

## ALISHER NAVOIY G'AZALLARI INGLIZCHA TARJIMASIDA SHOIR VA MUTARJIM PSIXOLOGIYASI

*Kasimova Ra'no Raxmatulloyevna,*  
*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,*  
*Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi*  
*va tarjimashunoslik kafedrasida*  
*r.r.kasimova@buxdu.uz*

*Annotatsiya.* Maqola mumtoz adabiyot namunalari, xususan, A.Navoiy g'azallarining bevosita ingliz tili o'girmalarida shoir va tarjimon psixologiyasi tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, g'azallar mazmun-mohiyatini, falsafiy metaforalarini anglash, ruhiyatini his etish va uni tarjimada aks ettirishda tarjimon ruhiyatiga ta'siri masalalari xususida fikr-mulohazalar yoritilgan. Professional tarjimonlar taglama tarjimasi va amaliyotchi tarjimonlar tarjimasi o'zaro qiyoslanib, she'riy tarjima muammolari aniqlangan. Shuningdek, poetik va emotsional undov so'zlar tarjimasi, lingvistik va grammatik jihatlar tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* professional tarjima, falsafiy metafora, shoir va tarjimon psixologiyasi, ruhiy yaqinlik, uslubiy mushtaraklik.

## ПСИХОЛОГИЯ ПОЭТА И ПЕРЕВОДЧИКА В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ ГАЗЕЛЕЙ А. НАВОИ

*Аннотация.* Статья посвящена изучению психологии поэта и переводчика при прямом английском переводе образцов классической литературы, в частности, газелей А. Навои, для понимания сути, философских метафор газелей, ощутить их дух и отразить его в переводе. Обсуждаются мнения о влиянии на психику переводчика. Подстрочный перевод профессиональных переводчиков сравнивается переводами практикующих персоналов, а также выявляются проблемы поэтического перевода. Также анализировались перевод поэтических и эмоциональных восклицаний, лингвистические и грамматические аспекты.

*Ключевые слова:* профессиональный перевод, философская метафора, психология поэта и переводчика, духовная близость, методологическая общность.

## PSYCHOLOGY OF A POET AND TRANSLATOR IN THE ENGLISH TRANSLATION OF A. NAVOYI'S GHAZALS

*Annotation.* The article is devoted to the study of the psychology of the poet and the translator in the direct English translations of classical literature examples, in particular, the ghazals of A. Navoi, to understand the essence, philosophical metaphors of the ghazals, to feel their spirit and to reflect it in the translation. Opinions on the impact on the translator's psyche are discussed. Word-for-word translations done by professional translators were compared with the practicing translators' translations, and the problems of poetic translation were identified. Also, the translation of poetic words and emotional exclamations, linguistic and grammatical aspects were analyzed.

*Keywords:* professional translation, philosophical metaphor, psychology of poet and translator, spiritual closeness, methodological commonality.

**Kirish.** O'zbek mumtoz adabiyoti shoh asarlari poetikasi va uslubi dunyo kitobxonlarini hamisha qiziqtirib kelgan. Xususan, Alisher Navoiy bobomizning ijodiy merosi 582 yildirki, jahon adabiyotining rivojlanishi, dunyo xalqlarining ma'naviy yuksalishi va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu bois shoir she'rlari dunyoning bir necha tillariga, jumladan, ingliz tiliga ham o'girilgan. Shaklan aruz vaznida yaratilgan Alisher Navoiy g'azallarini bir tildan boshqa tilga tarjima qilish mushkul. Sababi eski o'zbek yozuvi va o'ziga xos mavzu qamrovi juda murakkab. Shunday bo'lsa-da, Navoiy g'azallarining ruscha, inglizcha tarjimalari borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

O'zbek adabiyotining ingliz tiliga qilingan ilk tarjimalari Alisher Navoiy asarlari bilan bog'liq. Buyuk mutafakkirning "Lison ut-tayr" dostoni E.Fitzjerald tomonidan ingliz tiliga o'girilib, 1899-yil AQShning

Boston shahrida nashr ettirilgan. Keyinchalik ushbu “Lison ut-tayr” dostonining nasriy bayoni kanadalik Garri Dik va o‘zbek tarjimashunos olim N.Qambarov hamkorligida ingliz tiliga tarjima qilingan. G.Dik Navoiy ijodini o‘rganib chiqqach, shoirning ushbu kitobini “...this book will advance your spiritual pilgrimage to God and his flower garden of truth”[1; 7], deb ta’riflaydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” risolasi Robert Deveruks tomonidan tarjima qilinib, 1966-yilda AQSHda, Margaret Bettli tomonidan o‘g‘irilgan Alisher Navoiy hikmatlari “Vatan” jamiyati jurnalida nashr ettirilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston gapiradi” nomli inglizcha to‘plamda Navoiyning g‘azallari, ruboiylari, hikmatlaridan namunalar hamda “Farhod va Shirin” dostonidan parchalar kiritilgan.

Yaqin-yaqingacha xorijiy tillardan o‘zbek tiliga yoki o‘zbek tilidan xorijiy tillarga adabiyotlar meta til – rus tili orqali tarjima qilingan. Aksar hollarda adib yoki shoirning yubileyi yoki adabiy kunlari, umuman olganda, biror sabab bilan tarjimaga qo‘l urilgan. Har qanday tarjima asliyat mazmuni va shaklining transformatsiyasidir. Shuning uchun ham asar bevosita tarjima qilinishi maqsadga muvofiq.

**Asosiy qism.** Mustaqillikka erishgach, A.Navoiy g‘azallarining ingliz tiliga bevosita tarjimalarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, “Pearls from the ocean. Samples from ghazals, wise sayings and rubaiyat (Ummondan durlar. G‘azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar)”, “Selected gazels of Navoiy (Navoiyning tanlangan g‘azallari)”, “Twenty one Ghazals by Alisher Navoiy (Alisher Navoiyning yigirma bir g‘azali)”, “Selections from Uzbek Literature Translated into Bangla and English” singari kitoblar nashr ettirilgan. Bundan tashqari, badiiy-adabiy, ijtimoiy-publitsistik “Jahon adabiyoti” jurnalining “Navoiy saboqlari” rukni an’anaviy tarzda A.Navoiy g‘azallari nasriy bayoni, mazmun-ma’nosi va ruscha hamda inglizcha tarjimalari berib borilishi ahamiyatga molik.

Ingliz va o‘zbek tarjimonlari amalga oshirgan bunday bevosita tarjimalar G.Odilova ta’biri bilan aytganda, xorijlik tajribali va Sharq she’riyati sirlaridan xabardor muharrir tahriridan o‘tib, nashr etilishi kerak. Zero, o‘zbek tarjimashunoslari g‘azal asliyatidagi ma’no va badiyatning tarjimada qayta yaratilgan yoki yo‘qligiga baho berishi mumkindir, ammo, tarjima tilining silliq va xorijlik kitobxon uchun o‘qishligiga eng odil bahoni xorijiy til egasigina bera oladi [7].

Asliyat matni:	Tarjima matni:
<i>Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,</i>	<i>Would a nightingale sing in tune if from its dale blooming it parts?</i>
<i>Aylamas to ‘ti takallum shakkaristondin judo.</i>	<i>Would a parrot chirp merry notes if from its sweetly treating parts?</i>
<i>Ul quyosh hajrinda qo ‘rqarmen falakni o ‘rtagay,</i>	<i>My woeful sign for my sunlit faced lover makes the heaven moan,</i>
<i>Har sharorekim, bo ‘lur bu o ‘tlug ‘afg ‘ondin judo.</i>	<i>Every part of sphere would wail if from its light blazing it parts.</i>
<i>Dema, hijronimda chekmaysen fig ‘onu nola ko ‘p,</i>	<i>I suffered a lot parted from my fairy, but she said not much,</i>
<i>Jism aylarmu fig ‘on bo ‘lg ‘an nafas jondin judo?</i>	<i>And can lifeless body groan, if the heart from its breathing parts.</i>
<i>Hajr o ‘lumdin talx emish, mundin so ‘ng, ey gardun, meni,</i>	<i>They say that parting is much more harmful than dreadful death itself,</i>
<i>Aylagil jondin judo, qilg ‘uncha jonondin judo.</i>	<i>You ‘d better make me die, only not force my love from me to part [5;18].</i>

Shoirning mazkur g‘azalida falsafiy metaforalar mujassam. Unda inson bulbul, to‘ti, parvona, it obrazlariga qiyoslanadi. Bulbulni gulzoridan ayirish, chiroyli xonishiga to‘sqinlik qilsa, to‘tini shirinlikdan mahrum etish, gapirishdan voz kechishiga olib keladi. Shoir sevgilisidan ayrilganini ana shu bulbul va to‘tiga, qolaversa, sha‘midan ayrilgan parvonaga, egasiz itga o‘xshatadi. Quyoshidan, ya’ni sevgilisidan ajralishini butun olamni nursiz qolganiga, hijronida nola-yu fig‘on chekishiga, yuragi nafas olishdan to‘xtashiga o‘xshatadi. Ayriqliq o‘limdan ham og‘irligini, sevgan yoridan ayrilgandan ko‘ra o‘limni afzal ko‘rishini, yuz mingta joni bo‘lsa ham barini sevgilisiga berishga tayyorligini, yonib o‘chayotgan shamdek, tugab borayotganini, tushkun kayfiyatdaligini ta’kidlaydi. G‘azal asliyatida qofiyalanib kelgan gulistondin, shakkaristondin, afg‘ondin, jondin so‘zlari inglizcha tarjimada *dale blooming, sweetly treating, light blazing,*

*breathing* kabi soʻzlar orqali ifodalangan. Radif sifatida qoʻllanilgan asliyatdagi *judo* soʻzi ingliz tiliga *part leksemasi* bilan oʻgʻirilgan.

Gʻazalning lingvistik va grammatik jihatlarini ingliz tiliga oʻgʻirishda nomutanosibliklar kuzatilishi tabiiy. Biroq poetik tarjimada shakldan koʻra mazmun muhim. Mutarjim asliyat ruhiyati va gʻoyasini yoritib berishga masʻul.

Mazkur gʻazalning ingliz tilidagi bir nechta tarjimalarini yonma-yon keltirib, tarjimonlar uslubini yoritishga urinib koʻramiz. Gʻazalning asliyati va tarjimalari 1-ilovada keltirilgan.

Gʻazalning 2000 yilda qilingan birinchi tarjimasida asliyatdagi *shakariston, yaʼni doimiy shirinlik bilan siylanadan joyidan ayrilgan toʻti* birikmasi – *sweet tongued mate*, yaʼni shirinsuxan doʻstdan ayrilishga aylangan. Tarjimonning joyni insonga qiyoslashi natijasida gʻazal asliyati tarkibida mavjud boʻlmagan yangi obraz paydo boʻlgan.

Keyinchalik 2015 yilda amalga oshirilgan ikkinchi tarjimada bunday obrazlantirish kuzatilmaydi. Tarjimon *sweetly treating – shirinlik bilan mehmon qilish* birikmasini qoʻllashni afzal koʻradi. Asliyatda aynan ana shu maʼno ifodalangan va H.Devidson tasniflaganidek, tarjimon gʻazaldagi hissiyotlarni idrok etgan va mazmunni tarjima tili resipientiga toʻgʻri yetkaza olgan. Biroq ushbu misralarning davomida bir qator transformatsiyalarni kuzatish mumkin.

Keyingi misralarda oshiqning *O parting!* – oh ayriliq! oʻrtanishi, yuztalab qalbimni oʻgʻirla, lekin sevgilimni mendan, meni sevganimdan ayirma degan oʻkinchini his etish mumkin. Aslida oshiq bu yerda jonini oʻzi taqdim etmoqchi, uni oʻgʻirlashga hojat yoʻq. Faqat sevgan yori bilan birga boʻlsa, bas. Oshiq shoirning sevgilisiga boʻlgan muhabbati *parvonaning shaʼmi shabistoniga* qiyoslangan. Asliyatda subh kapalakni shaʼmidan ayirgandek, shoir ham oʻz sevgilisidan ayriladi. Tarjimada esa ana shu yor timsoli boshpanaga aylanib ketgan. Shaʼm, odatda, qorongʻu tunda ishlatilib, kunduzi yorugʻ tushgach, unga ehtiyoj qolmaydi. Parvona ham subhda shaʼmidan ayrilishini his etib, uning otashida oʻlishni afzal koʻradi.

Yorning figʻon chekmayotgan oshiqdan xafa boʻlishiga javoban, shoir suyukligidan ayrilgan tani jonsiz, ayriliq oʻlimdan ham qoʻrqinchliroq va achchiq hissiyotligini aytadi.

Badiiy adabiyotlarda it vafodorlik ramzi boʻlib, hamisha egasi bilan birga yuradi. Egasidan ajralib qolishi uni yolgʻizlikka mahkum etadi. Ana shunday it ramzlaridan birini ingliz adabiyotidagi E.Atkinonning “Greyfiarning Bobbisi” nomli romanda ham uchraydi. It egasi vafotidan keyin yakkalanib qolgani, motam tutib, vafotigacha egasining qabrini qoʻriqlagani bayon etilgan. Soʻnggi misralarda shoir nomidan sultonga murojaatni sezish mumkin. Bunda sulton Allohni ifodalab kelib, hech bir bandani Allohdan ayirmasligi iltijo qilinadi.

3-tarjimani tahlil qilarkanmiz, D.Deli gʻazalni boshlanishidan oxirigacha qisqa va loʻnda uslubda tarjima qilgani namoyon boʻldi. Tarjimon D.Delining G.Odilova bilan suhbatida Navoiy haqida koʻp oʻqiganini, uning hayoti va ijodi, oʻsha davr haqidagi hikoyalar bilan tanishligi, 2001 yilda Tinchlik Korpusining koʻngillisi sifatida Gurlanda oʻzbek bolalariga ingliz tilidan dars berayotgan qizi bilan Toshkentda uchrashgani, mamlakatni aylanib chiqqani, Alisher Navoiy ijodiga mansub baʼzi gʻazallarining ingliz tiliga nasriy tarjimalarini topgani, bu tarjimalarning sifati yaxshi deb aytib boʻlmasligini, lekin, mazmun orqali Navoiyning buyukligini koʻrish mumkinligini, qizining oʻzbek, rus tillarini bilish darajasi unga Navoiyning baʼzi gʻazallarini ingliz tilidagi badiiy matnini yaratish imkonini bergani haqida gapirib beradi va “Men shoir sifatida tarjimaning sheʼriy chiqishiga eʼtibor qaratdim, kerak joyda ingliz sheʼriyati texnikasidan foydalandim. Men tarjimam hammanikidan aʼlo chiqqan deb daʼvo qilmayman. Biroq, kam sonli tarjimon yoki olimlarda shoirona mahorat boʻladi. Mening tarjimalarim eng aʼlosi boʻlmagan taqdirda ham asosiy maqsadim shoir ijodini imkon boricha tezroq amerikaliklarga yetkazish edi. Men aniq ishonamanki, hali asliyatga yaqin tarjimalarim oldinda”[7], deya taʼkidlaydi.

Alisher Navoiy gʻazallarida badiiy tasvir rango-rangligi va matn maʼnolarining koʻpligi-yu teranligi mavjud. Denis Deli tarjimalarida tagmaʼno va koʻp sonli tasvirning baʼzilarining uchratsangiz-da, tarjimalar nihoyatda oʻqishli chiqqan, eng muhimi chet ellik mumtoz Sharq sheʼriyati muxlislari Navoiyni kashf etishmoqda [7].

Koʻrinib turibdiki, tarjimon Navoiy ijodi bilan oldindan tanishib yurgan, gʻazallarining oldin qilingan tarjimalari sifatidan qoniqish hosil qilmagan, gʻazallar ruhiyati va mohiyatini tushunishida qizining koʻmagiga tayangan.

Maʼlumki, tarjimada ruhiy yaqinlik va uslubiy mushtaraklik masalalari eʼtibordan chetda qolgan muammolardan biridir. Badiiy asar hayotning inʼikosi boʻlsa, tarjima shu inʼikosning inʼikosi. Muallif koʻnglidan oʻtkazib tasvirlagan voqelik oʻquvchini ham junbishga keltirganidek, mutarjim qalbida aks sado bergan asar ham boshqa millat kitobxonini yuragini toʻlqinlantiradi [3;105]. D.Delining oʻzi Gʻarb dunyosi

## LITERARY CRITICISM

dunyoviy ishq va ruhiy iztirobni mistik sevgi va soʻfizm anʼanalari qorishmasida oʻz sheʼriyatida aks ettira olgan Alisher Navoiydek shoirlar ijodini oʻqishga muhtojligini, Alisher Navoiyning koʻp asarlari Oʻrta Osiyo va amerikaliklar, shuningdek, ingliz tilida soʻzlashuvchilar oʻrtasida madaniy rishta boʻlib xizmat qilishi mumkinligini tan oladi. Kitob Amerika Qoʻshma Shtatlarining deyarli hamma shtatigacha kirib borgani, bu oʻziga xos yangilik boʻlgani va hamma joyda kitobxonlar tomonidan nihoyatda iliq qarshi olinganini aytadi.

Asliyatdagi “*ul quyosh*” sevikli yorga ishora, biroq tarjimalarda “*the rays of my Sun*” – *quyoshimning nurlari*, “*sunlit faced lover*”- *quyosh yuzli sevgilim*, “*your fiery rays*”- *sening alangali nurlaring* singari tasvirlashlardan foydalanilgan. Biroq bu jumlar shoirning oʻt boʻlib yonayotgan yuragini koʻrsatib bera olmaydi.

A.Navoiyning “Avvalgilarga oʻxshamas” gʻazalida ham yor va hijron mavzusi kuylangan. Shoirning mazkur gʻazali ham ingliz tiliga Begoyim Xolbekova tomonidan bevosita tarjima qilinib, “Pain and grief in my heart” deb nomlangan. Gʻazal asliyat va tarjimasini oʻzaro solishtirib, ulardagi ruhiyat va mohiyatni yoritib berishga urinib koʻramiz. Gʻazalning asliyat va tarjimasining toʻliq matni 2-ildovada keltirilgan.

Asliyat matni:	Tarjima matni:
<i>Koʻnglum ichra dardu gʻam avvalgʻilargʻa oʻxshamas</i>	<i>Pain and grief in my heart not similar to previous ones,</i>
<i>Kim, ul oyning hajri ham avvalgʻilargʻa oʻxshamas.</i>	<i>Separation with that sweetheart not similar to previous ones.</i>

Avvalo gʻazal baytlarida takrorlanib kelayotgan *avvalgilarga oʻxshamas* radifiga ahamiyat qaratisa, shoirning azoblari boshqachaligi anglashiladi. Tarjimada mutarjim ana shu radifni *not similar to previous ones* tarzida saqlab qolib, shoirning asliyatdagi ruhiyatini namoyon etgan. Biroq tarjimada gʻazalning nomlanishi asliyatdagidek aynan mana shu radif orqali ifodalanmagan. Badiiy tarjima qonuniyatlariga koʻra nasriy va nazmiy asarlar tarjimasini toʻliq nihoyasiga yetkazilgach, uning gʻoyasini ochib bera oladigan sarlavha tanlanadi. Mazkur holatda ham gʻazalning asosiy gʻoyasi oshiq qalbi iztiroblarini yoritgan va ana shu dard sarlavhaga chiqqan.

Ikkinchidan, asliyatdagi dardu gʻamga oʻsha oy sababchi. Bunda shoir sevgilisini qoʻl yetmas oyga qiyoslamogʻda. Yorning oyga metafora qilinishi ham, unga “ul” sifatining berilishi ham hijron dardining qattiqligiga dalolat qilyapti. Negaki, oy juda balandda – unga yetib boʻlmaydi. Negaki, “u, ul” koʻrsatish olmoshi ham soʻzlovchidan ancha uzoqda boʻlgan shaxs yoki narsa-hodisaga nisbatan qoʻllanadi[8].

Asliyatda qoʻllanilgan dardu gʻam – pain and grief orqali oʻgʻirilgan. Oy metaforik tarzda *sweetheartga* aylantirilgan. Aslida ham asliyatda oy suyuqli yor maʼnosida kelgan.

Asliyat matni:	Tarjima matni:
<i>Ne sitamkim qilsa, rahmi maxfiy ermas zimmida,</i>	<i>What cruelty she would not make, the favor were latent in them,</i>
<i>Emdi qilsa har sitam, avvalgʻilargʻa oʻxshamas.</i>	<i>Now her cruelty not similar to previous ones.</i>

Mazkur baytda yorning har qanday sitami ostida rahm-shafqat sezilib turgan va bu antonomik tarjimadan foydalangan holda *favor were latent in them* – *ulara muruvvat yashirin* koʻrinishida oʻgʻirilgan. Endilikda esa yorning jabru jafosida shafqat yoʻq. Oldingi sitamlardan farqli oʻlaroq, shafqatdan asar yoʻq.

Keyingi baytlarda shoir yorning goʻzalligini Layli va Shiringa tenglashtira olmasligi, goʻzalligi bilan u avvalgilarga hech ham oʻxshamasligi, dardi Farhodu Majnun kabi oshiqning dardiga oʻxshamasligini kuylaydi, negaki uning yori boshqasini sevib qolgan.

Asliyat matni:	Tarjima matni:
<i>Demangiz, Shirinu Layli oncha bor husn ichrakim,</i>	<i>Don't say that Layli and Shirin in beauty equals her,</i>
<i>Xoʻbluqda ul sanam avvalgʻilargʻa oʻxshamas.</i>	<i>In beauty that fairy is not similar to previous ones.</i>
<i>Javridin erdi alamlar, emdi tutmish oʻzga yor,</i>	<i>I feel cruelty, afflictions – for now she loves another,</i>

## LITERARY CRITICISM

<i>O'lmishamkim, bu alam avvalg'ilarg'a o'xshamas.</i>	<i>I die – this affliction not similar to previous ones</i>
<i>Ishq aro Farhod ila Majnung'a o'xshatmang meni</i>	<i>Don't compare my love with Farkhad and Majnun's passions,</i>
<i>Kim, bu savdoyi dijam avvalg'ilarg'a o'xshamas.</i>	<i>This dishonor and humiliation not similar to previous ones.</i>

Mazkur baytlarning inglizcha tarjimasida Layli va Shirin, Farhod va Majnun nomlari transliteratsiya qilingan, lekin nega ayna bu nomli kishilarga murojaat etilayotganini sezish qiyin. G'azalning inglizcha tarjimasida keltirilgan tavsifdan Shirin va Laylining go'zalligini, Farhod va Majnunning sevgisini tushunish mumkin xolos. Bundan tashqari asliyatdagi *savdoyi* tarjimada *hurmatsezlik va kamsitilish* orqali ifodalangan. Bu esa, Farhod va Majnun ham kamsitilgan, degan fikrni uyg'otadi. Aslida esa Farhod va Shirin, Layli va Majnun bir-birlarini sevishtgan, xiyonat qilishmagan, faqat zamon zayli tufayli bir-biriga erisha olmagan. Shunday bo'lsa-da, oshiq qalbidagi ishqdan voz kechmaydi, uni sevishta davom etaveradi.

Asliyat matni:	Tarjima matni:
<i>Ko'yining ehromidin ko'nglumni man' etmang yana</i>	<i>Do not forbid my heart to visit her street,</i>
<i>Kim, anga azmi haram avvalg'ilarg'a o'xshamas.</i>	<i>Decision on visiting Caaba not similar to previous ones.</i>

G'azalning so'nggi bayti Jamshid va Faridundan Shoh G'oziyning boshqachaligini alqash bilan yakunlanadi.

Asliyat matni:	Tarjima matni:
<i>Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfikim,</i>	<i>Oh, Navo'i, do not eulogize Jamsheed and Faridun,</i>
<i>Shoh G'oziyg'a karam avvalg'ilarg'a o'xshamas.</i>	<i>Shah Ghazi's generosity not similar to previous ones[5;90].</i>

G'azalning asliyatida ta'riflangan podsholar sharq adabiyoti muxlislariga ma'lum. Jamshid va Faridun – shuhrati jahonni tutgan qadimiy fors podsholari. Birining hukmronligi davri oltin asrga tenglashtirilgan, ikkinchisi afsonaviy ajdarni yenggan[8]. Biroq g'arb adabiyoti muxlisari orasida bu podsholar kimligi noma'lum. Bosh harflar bilan transliteratsiya qilinishidan shaxs nomi ekanligi anglashiladi xolos. Bu o'rinda mutarjimning maqsadi faqat g'azal mazmunini ingliz tiliga yetkazib berish bo'lgan, deb hisoblash mumkin, chunki g'azal tarjimasida mutarjim imkoniyatlari cheklangan, har bir keltirilgan tasvirga izoh bera olmaydi. Zero, tarjimon K.Ermakova aytganidek, badiiy asar tarjimasini ravon o'qilishi kerak. Har bir satrda to'xtab qolishi kerak emas. Aks holda, yo'lda mashinalar tezligini pastlatish uchun qo'yilgan to'sinlar singari tarjima tili respienti urilaveriladi<sup>4</sup>. Muhimi tarjimon shoirning hissiyotlarini, uning ohu-nolalarini yetkaza olgan.

Tadqiqotimiz davomida magistratura talabalari orasida tajriba o'tkazib, shoir g'azallarining asliyatdan bevosita ingliz tiliga o'girilishi topshiriq sifatida berildi. Biroq badiiy tarjimaga doir tajriba jarayonida bir qator muammolarga duch kelindi. Ma'lumki, badiiy tarjima muayyan bir ketma-ketlikda bajariladi. Biz ham muammolarni bartaraf etish maqsadida tajribamizni bir necha bosqichda amalga oshirishni rejalashtirdik.

Birinchi bosqichda:

1. Navoiy g'azallari asliyatini o'qib, idrok etish uchun vaqt berildi.
2. Navoiy she'riyatiga oid leksika tanishtirildi.
3. G'azalning nasriy bayoni va umumiy mazmun-ma'nosi tushuntirildi.

Ikkinchi bosqichda:

1. Amaliyotchi tarjimonlardan g'azalni asliyatdan bevosita ingliz tiliga o'girish so'raldi.
2. Vazifani individual tartibda bajarish belgilab qo'yildi.
3. Tarjimani yakunlash uchun 1 hafta muddat berildi.

<sup>4</sup> Tarjimon K.Ermakova bilan suhbatdan yozib olindi.



Uchinchi bosqichda:

1. Talabalarning tarjimalari professional tarjimonlar tarjimalari bilan o‘zaro solishtirildi.
2. Asosiy jihatlarni qayd etish topshirildi.

Biroq rejalashtirgan bosqichlarimizning hammasini yuqoridagi ketma-ketlikda amalga oshirishning imkoni bo‘lmadi.

Magistrant talabalar, avvaliga topshiriqni ko‘tarinki ruhiyat bilan qabul qilishdi. Hattoki, o‘zlaricha uni tarjima qilish osonligiga ishonishdi. Biroq berilgan muddat nihoyasiga yetgach, ko‘zga ko‘rinadigan natija ko‘rsata olishmadi. Buning sababi sifatida quyidagi holatlarni sanab o‘tish mumkin.

Birinchidan, berilgan topshiriq magistrantlarni gangitib qo‘ydi, chunki ularda nazmiy asarlar tarjimasiga oid ko‘nikma hali shakllanib ulgurmagan.

Ikkinchidan, A.Navoiy g‘azallari eski o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, ularning mazmunini hatto o‘zbek tilida tushunish ancha mushkul.

Uchinchidan, topshiriqqa aniq vaqt belgilanishi va individual tartibda bajarish talabi magistrantlarning ruhiyatiga salbiy ta‘sir qilgani kuzatildi.

Shundan so‘ng talabalardan bu vazifani kichik guruhlarda bajarish talab qililib, vaqt chegaralanmadi. Talabalar o‘zlarini erkin his qilib, birlashtirilgan guruhlarda ishlashdi. O‘zaro fikr almashib, g‘azal mazmun-mohiyatini tahlil qilishdi. Biri tushunmaganini ikkinchisi o‘z qarashlari bilan to‘ldirishga urinishdi va ijodiy yondashgan holda o‘z tarjima variantlarini yaratishdi.

Professional tarjimonlar va amaliyotchilar tarjimalaridan g‘azal asliyatini va taglama tarjimalarini yonma-yon keltirib, o‘tkazilgan tajribamiz natijalarini tahlilga tortamiz. Tajriba jarayonida tarjima qilingan g‘azallar asliyatini va tarjimalarining to‘liq matni ilovalarda keltirilgan.

Mumtoz adabiyotimizda payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) maqtoviga bag‘ishlab yozilgan asarlar na‘t deb ataladi. Alisher Navoiy ijodida na‘t mavzusidagi she‘rlar ikki yo‘nalishda: Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) vasfi va me‘roj tuni ta‘rifi bilan bog‘liq holda bitilgan [2;6]. A.Navoiyning “Bediling xayli rusul...” g‘azali ham ana shunday g‘azallar sirasiga kiradi. Mazkur g‘azalning ingliz tilidagi taglama tarjimasini, magistrantlar tarjimasini asliyatini bilan o‘zaro chog‘ishtirib, tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

Asliyat matni: Bediling xayli rusul...	Tarjimon taglama tarjimasini:	Amaliyotchi tarjimasini: The lover of the Prophets...
<i>Bediling xayli rusul, sensen alarg`a dilrabo,</i>	<i>All Prophets are charmed by you. You are attractive for all of them.</i>	<i>All Prophets are attracted by You, You are winsome,</i>
<i>Yo nabiy, ruhiy fidoka ahlan va sahlam marhabo.</i>	<i>Eh Prophet, let our souls be sacrifice, welcome! [2;6]</i>	<i>Hey Prophet, May heart be sacrificed for you, welcome, you are welcome<sup>5</sup></i>

G‘azalning ilk baytida payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) barcha payg‘ambarlardan ko‘ra aziz va go‘zal ekani hamda shoir u kishiga o‘z jonini fido qilishga ham tayyorligi tasvirlangan. Aslida shoirning payg‘ambarimizga “Yo nabiy” deya murojaat qilishida ham ma‘lum bir sabab bor. Nabiy payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning muborak ismlaridan biri bo‘lib, Ollohdan vahiy kelgan, Ollohning elchisi, degan ma‘nolarni anglatadi. G‘azalning inglizcha so‘zma-so‘z tarjimasida Yo nabiy – *Eh Prophet – Heu Prophet* tarzida kishilarning his-tuyg‘usi, ruhiy holatini bildiruvchi emotsional undov so‘zlar orqali o‘g‘irilgan va bu yerda faxralanish ma‘nosini anglatgan.

Asliyat matni: Bediling xayli rusul...	Tarjimon taglama tarjimasini:	Amaliyotchi tarjimasini: The lover of the Prophets...
<i>Bo‘limg‘ay erdi muyassar “Xamsa”, ya‘ni panj ganj,</i>	<i>If five great members of that family did not support me,</i>	<i>Unless the five Greats of the High family were helpful to my condition,</i>
<i>Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oli abo.</i>	<i>I would not be able to own five pieces of treasure.</i>	<i>I wasn’t blessed with ‘Khamasa’, that’s “Five Treasures”</i>

<sup>5</sup> Магистр талабалар таржимаси

Gʻazalning ushbu baytlarida A.Navoiy oʻzbek adabiyoti xazinasidan joy olgan mashhur “Xamsa” asarini oli abo madad boʻlgani tufayli yaratilgan, deb hisoblaydi. “Alisher Navoiy qomusiy lugʻati”da aytilishicha, oli abo deganda “...besh kishi: Muhammad paygʻambar (s.a.v.), Ali ibn Abu Tolib, Bibi Fotima – Paygʻambarimizning qizlari hamda Imom Hasan va Imom Husayn – Paygʻambarimizning nevaralari nazarda tutiladi. Jomiyning “Shavohid un-nubuvva” asarida berilishicha, oli abo Abbos ibn Abdumuttalib va uning oilasi aʼzolariga nisbatan ham qoʻllanilgan”[2;5].

Mazkur baytda keltirilgan oli abo – *five great members of that family – the five Greats of the High family* (buyuk oilaning besh mashhurlari) deya oʻgirilgan. Asliyatda paygʻambarimiz oilalariga hurmat, ehtirom kuzatiladi, biroq tarjimadagi oʻsha oilaning besh buyuk aʼzosi, buyuk oilaning besh mashhurlariga nisbatan his etilayotgan tuygʻular qaysi oila aʼzolariga tegishligi mavhum.

Asliyat matni: Bediling xayli rusul...	Tarjimon taglama tarjimasi:	Amaliyotchi tarjimasi: The lover of the Prophets...
<i>Ey, Navoiy, chorayi dardingni qilgʻay ulki bor</i>	<i>Oh, Navoi, there is a person who can cure you,</i>	<i>Oh, Navoi, do what you need to do</i>
<i>Ham rasulu ham amin, ham mustafo, ham mujtabo.</i>	<i>He is an envoy, he is sure, he is chosen and he is selected.</i>	<i>Both the Messenger and the Amin, and the chosen and had chosen</i>

Gʻazalning yakunlovchi qismida keltirilgan ushbu misralarda shoirning dardiga Rasul – elchi, Amin – adolatli, Mustafo – tanlangan, Mujtabo – saralangan, tanlangan, hurmatga sazovorlar davo boʻlishi taʼkidlangan. N.Qambarov taglama tarjimasida paygʻambarimiz nomlarini sanab oʻtirmasdan, u kishining sifatlashlarini koʻrsatib oʻtgan. Demak, tarjima amaliyotida nomlarni transliteratsiya qilishdan koʻra ularni mazmunini inobatga olib oʻgirish holatlari ham mavjud.

A.Navoiyning “Koʻrgali husnungni zoru...” gʻazali asliyatini va tarjimalarini solishtirish orqali ulardagi mohiyatning, oshiq qalbi iztiroblarining yoritilishiga eʼtibor qaratamiz.

N.Qambarovning mazkur gʻazal taglama tarjimasida sarlavha berilmagan, qoʻshma gaplar, inversiya, takrorlardan unumli foydalanilgan, tili sodda, tushunarli. Gʻazalning asosiy gʻoyasini anglash oson. Biroq asliyatda har bir bayti 2 misradan iborat gʻazal tarjimasida har bir bayt 4 misragacha choʻzilgan. Magistrantlar tarjimasida buning aksi kuzatildi. Ularning tarjimasida gʻazal “*Glance to your beauty...*” deb nomlangan va tarjima jarayonida asosan, poetik soʻzlar – *captive, day by day, tormented, assent, sacrifice, beauty of beauties, admonitions, Oh connoisseur, dervish*; sinonim soʻzlar – *prisoner, captive*; antonimlar – *fall out of love, I felt in love, torments, admonitions, issue*; takrorlar – *beauty of beauties, become* singarilarga ahamiyat qaratilgan. Shuningdek, asliyatda shoirning sevgan yoriga ey pari paykar yoki qalbiga ey koʻngil deya murojaat qilishida oshiq koʻngli ohu nolasini ifodalaydi. Tarjimada bu kabi qalb iztiroblari *O my peri-faced beloved – Oh my beauty of beauties* tarzida aks ettirilgan.

Asliyatdagi poetik soʻzlar N.Qambarov va magistrantlar tarjimasida quyidagicha ifodalangan: *mubtalo boʻldum sango – fell in love – made prisoner, oshno boʻldum sango – a day when I saw you – awful day that turned me into a captive, uzay sendin koʻngul – give it up – tried to fall out of love, pari-paykar – peri-faced beloved – beauty of beauties, Jomi Jam – Jamshid’s goblet – Jomi’s cup, Xizr suyi – Hizr’s life-giving water – water of Hizr, gado boʻldum sango – be a hermit – become a dervish va h.k.*

Asliyat matni: Koʻrgali husnungni zoru...	Tarjimon taglama tarjimasi:	Amaliyotchi tarjimasi: Glance to your beauty...
<i>Qay pari paykargʻa-dersentelba boʻldung bu sifat,</i>	<i>You ask me which peri-faced beloved I fell with love like a mad,</i>	<i>If you ask which beauty of beauties made me mad</i>
<i>Ey pari paykar, ne qilsang qil manga, boʻldum sango.</i>	<i>O my peri-faced beloved, I agree to your torture so much As you are whom I fell in love with.</i>	<i>Oh my beauty of beauties, I agree to any grief due to you</i>
<i>Ey koʻngul, tarki nasihat ayladim avvora boʻl,</i>	<i>Oh my soul, I would not listen to anybody around me, And you also spared time.</i>	<i>Oh my heart, I did not obey to admonitions</i>

## LITERARY CRITICISM

<i>Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sango.</i>	<i>Would not one hundred problems enough for you And I was one more problem for you.</i>	<i>And become <b>issue</b> caused another one to you</i>
<i>Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,</i>	<i>In order to have Jamshid's goblet and Hizr's life-giving water,</i>	<i>For Jomi's cup and water of Hizr <b>becoming</b> mine</i>
<i>Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sango.</i>	<i>Oh cupbearer, I will give up everything to be a hermite.</i>	<i>Oh connoisseur, leaving wealth I <b>become</b> a dervish for you</i>
<i>G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,</i>	<i>I could not find love's sad tune for a beloved like you as Navoi did [2;6]</i>	-
<i>To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sango.</i>		-

N.Qambarov tarjimasida asliyatdagi so'nggi baytning 2 misrasi birlashtirilib, bitta misra tarzida berilgan. Amaliyotchilar tarjimasida esa mazkur bayt mutlaqo tushurib qoldirilgan. Umuman olganda, g'azalning ingliz tilidagi so'zma-so'z tarjimasini jarayoni bir qator qiyinchiliklar tug'dirgani ayonlashdi. Zero, G'.Rahimov qayd etganidek, so'zma-so'z tarjima kitobxonni asar mazmuni bilan umumiy tarzda tanishtirgani holda, mukammal badiiy tarjima yaratish uchun xomaki matn sifatida xizmat qilishi mumkin. Goho taglamadan asarni tarjima qilishda ham foydalanilgan[4;35]. Shunday qilib, badiiy tarjimada asliyat ruhiyatini to'g'ri idrok etish va uni kitobxoniga tushunarli yetkazib berishda taglama tarjimaning ahamiyati juda katta.

**XULOSA.** Tajribamiz shuni ko'rsatdiki, birinchidan, she'riy tarjima juda murakkab jarayon va bu jarayon tarjimon ruhiyatiga ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Ayniqsa, asliyat matni qadimgi o'zbek yoki ingliz tilida yozilgan, tarixiy so'zlar va arxaizmlarni qamrab olgan bo'lsa, majburiyat ikki karra ortadi. Ruhiiy zo'riqish ham shunchalik kuchayadi.

Ikkinchidan, asliyat mazmuni va vaznini tarjima tiliga o'girish yetarlicha tajriba orttirilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, bunday tarjimalarni amalga oshirishda qo'shimcha yordam beruvchi manbalarga tayanish lozim. Bizning amaliyotchi talabalarimizga g'azallarning nasriy bayoni, umumiy ma'nosi, N.Qambarovning taglama tarjimasini singari manbalar asos vazifasini o'tadi va o'z tarjima variantlarini yaratishlariga qo'l keldi.

### ADABIYOTLAR:

1. Gary Dick. *Why our world needs poets like Navoiy/ The language of birds/ to 'plovchi va tarjimon A'zam Obidov.* –Toshkent: Tafakkur, 2012. – 160 b.
2. *Jahon adabiyoti. Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal.* – Toshkent, 2016. – №7. – 208 b.
3. Ochilov E. *Badiiy tarjima masalalari (o'quv qo'llanma).* – Toshkent, 2014. – 175 b.
4. Раҳимов F. *Таржима назарияси ва амалиёти.* – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2016. – 175 б.
5. *Selections from Uzbek literature translated into Bangla and English. Embassy of Bangladesh.* – Tashkent, 2019. – 151 p.
6. Sultanova D. *Selected Gazels of Navoiy.* – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2015. – 74 b.
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/gulnoza-odilova-alisher-navoiy-gazaliyoti-amerikada-denise-provost-twenty-one-ghazal-sof-alisher-navoiy.html>
8. <https://telegra.ph/%D2%B2azrat-Navoij-%D2%93azali-shar%D2%B3i-02-09>